

**QISHLOQ XO‘JALIGI MEHNATKASHLARINING
1967-YILGI MAJBURIYATLARI
(NAVOIY HAMDA KONIMEX RAYONLARI MISOLIODA)**

Saibov Dilshod Kamiljonovich,

*Navoiy davlat universiteti tuzilmasidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi ilmiy xodimi, tarix
fani o‘qituvchisi*

dilshodsaibov1989@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18706958>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Navoiy hamda Konimex rayonlarida 1967-yilgi kolxoz va sovxozlarida paxta, sabzavot, go‘sh, tuxum poliz mahsulotlari hamda rentabellikni 1966-yildagiga nisbatan kolxozlar va sovxozlar bo‘yicha belgilangan majburiyatlarini ortig‘i bilan bajarish rejalashtirilgan.

Kalit so‘zlar: Kolxoz, sovxoz, paxta, sabzavot, irrigatsiya, melioratsiya, poliz, ozuqabop, uy-joy, majburiyat, sentner, protsent.

Abstract. This article plans to increase the production of cotton, vegetables, meat, eggs, melon products and profitability of collective and state farms in the Navoi and Konimekh regions in 1967, in addition to the obligations established for collective and state farms in 1966.

Keywords: Collective farm, state farm, cotton, vegetables, irrigation, land reclamation, melon, feed, housing, obligation, centner, percentage.

Аннотация. В данной статье планируется увеличить производство хлопка, овощей, мяса, яиц, дынных изделий и рентабельность колхозов и государственных хозяйств в Навоийской и Конимехской областях в 1967 году, в дополнение к обязательствам, установленным для колхозов и государственных хозяйств в 1966 году.

Ключевые слова: Колхоз, ферма, хлопок, овощи, орошение, мелиорация земель, дыня, корма, жилье, обязательства, центр, процент.

Kirish. Sovet jamiyatida boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy rivojlanishning mohiyatini belgilab bergan islohotlar o‘n yillar davomida yetilib keldi. Bu islohotlarning zaruriyligi XX asr 60-70-yillarida jahonda xususan, rivojlangan mamlakatlarda yuz bergan chuqur texnologik o‘zgarishlar, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich-postindustrial jamiyatga o‘tish bilan belgilangan edi.

1946-1985-yillar O‘zbekiston tarixidagi murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan, O‘zbekiston xalqining fidokorona, bunyodkorlik mehnati tufayli respublika iqtisodiyoti anchagina rivojlandi. Ikkinchi tomondan, sobiq Ittifoqda hukmron bo‘lgan totalitar tuzum, ma‘muriy buyruqbozlikning kuchayishi natijasida ijtimoiy, iqtisodiy va ma‘naviy hayotda bir qator muammolar, noxush holatlar to‘planib borib pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi. SSSRda 1985-1991-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy rivojlanishning mohiyatini belgilab bergan islohotlarning tarixiy shart-sharoitlari uzoq vaqt davomida yetilib keldi.

1965-yil mart oyida “Qishloq xo‘jaligini industrial negizga ko‘chirish-tub vazifalarimizdan biridir” tamoyili asosida o‘tkazilgan KPSS Plenumida O‘zbekiston SSRda qishloq xo‘jaligini mustahkam iqtisodiy negizga ko‘chirish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Ushbu vazifaning bajarilishi o‘z navbatida qishloq xo‘jaligining bevosita rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq edi.

1965-1985-yillardagi Buxoro oblastida qishloq xo‘jaligi mahsulotlar yetishtirish masalasi nafaqat O‘zbekiston SSR, balki ittifoq respublikalari xalq xo‘jaligi uchun ham muhim ahamiyatga ega edi.

O‘zbekistonda mazkur davrda har yili kuz mavsumi va hatto dekabr oyida tinchlik sharoitida ham xuddi frontda bo‘lgani singari bir holat hukm surgan. O‘zbekistonning deyarli barcha aholisi paxta yig‘im-terimiga jalb qilingan. Boshqa davlat muassasalari xodimlari ham ommaviy ravishda “oq oltin”ni terishga safarbar qilingan. Biroq paxtadan olingan asosiy daromadning huzurini Markaz ko‘rgan, o‘zbek dehqonlari esa asosan qora mehnat bilan shug‘ullangan.

L.I.Brejnev partiyaning KPSS XXVI syezdidagi nutqiga e‘tibor qaratsak ittifoqning agrar va qishloq xo‘jaligiga oid siyosatini ochiqlashimiz mumkin. “Biz bu dasturni ishlab chiqarishga kirishdik, aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlash dasturini qat‘iy ravishda hal qilib berishimiz lozim! Bu dastur qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishning ancha ko‘paytirilishini ta‘minlashi kerak. Bu dastur qishloq xo‘jaligi bilan uning mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi tarmoqlarini, albatta, savdoni ham bir-biriga mahkamroq bog‘lashi lozim”. Boshqacha qilib aytganda, dasturning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi aholini oziq-ovqat bilan uzluksiz ta‘minlash vazifasini mumkin qadar qisqa muddatlarda hal etishdan iborat “yaxlit bir butun sifatida butun agrosanoat kompleksni planlashtirish, mablag‘ bilan ta‘minlash va boshqarish yuksak pirovard maqsad xalq xo‘jalik natijalariga erishishga, mamlakatni puxta ravishda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi xomashyosi bilan ta‘minlashga yordam beradi” degan ma‘no anglashiladi.

Buxoro oblastining mehnatkashlari ham sevimli Vatanimizning yubiley yiliga o‘zlari erishgan muvaffaqiyatlardan chuqur faxrlanish his-tuyg‘ulari bilan, kelajakning ajoyib istiqbollariga zo‘r ishonch hosil qilish bilan qadam qarorlarini, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari va madaniyatini rivojlantirish hamda besh yillik plan topshiriqlarini bajarish uchun fidokorona kurashni har qachongidan ham qizitib yuborgan edilar. Qishloq xo‘jalik mehnatkashlari ham besh yillikning to‘ng‘ich yilida qilingan ishlariga yakun yasaganlar.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko‘pgina komplekslarning boshqa barcha bo‘g‘inlarini ham proporsional, balanslashtirilgan tarzda rivojlantirishgan. Butun respublikada milliy daromadning o‘rtacha yillik

o'sishi pasayib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad 1965-yilgidan 1986-yilga kelib 7 barobarga kamaydi.

1966-yil kolxoz va sovxoz ishlab chiqarishini va ayniqsa, qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lgan paxtachilikda katta g'alabalar yili bo'lgan. Oblast "oq oltin" tayyorlash yillik planini 40 ish kunida bajargan. Davlatning ulkan xirmoniga plandagi 315 ming tonna o'rniga 345 ming tonna paxta topshirishgan. Har gektardan oblast bo'yicha 21,3 sentnerdan hosil olingan. Yalpi paxta hosilining 82 protsenti birinchi sortlar bilan topshirilgan. Hosilning hammasi tayyorlov punktlariga qop-qanorsiz yetkazib berilgan.

1966-yilda qishloq xo'jaligining bir tarmoqlarida, ayniqsa chorvachilikda yuzberganday ularni qattiq tashvishlantirgan. Qorako'l teri, pilla tayyorlash planlari to'ldirilmay qolgan. 8 ta rayondan 7 tasi sut va tuxum yetkazib berish planini eplay olmagan. Chorva mollari mahsuldorligi past bo'lgan. Yetishtirilayotgan mahsulot tan narxi esa qimmatga tushgan.

Paxtada ham anchagina yetishmovchiliklar mavjud bo'lib, 37 ta kolxoz, 5 ta sovxoz 63800 gektar maydonning har bir gektaridan 20 sentnerdan pastroq paxta topshirgan. 8 ta kolxoz esa hosildorlikni 16 sentnerga ham yetkaza olmagan. Sabzavot, poliz va ozuqabop mahsulotlar yetishtirish ham o'sib borayotgan talablar darajasiga yetmagan.

Oblast qishloq xo'jaligi mehnatkashlari 1967-yilda 10 yaqin sotsialistik majburiyatlarni qabul qilib olganlar. Jumladan, Sug'oriladigan yerlardan foydalanishni kuchaytirish maqsadida irrigatsiya va melioratsiya qurilishlari ishini kuchaytirish, 2100 tonna pilla yetishtirish va davlatga sotish. Buning uchun yetarli miqdorda ozuqa bazasini vujudga keltirish ishini kuchaytirish.

Inkubatoriyalarni, asbob-anjomlar va qurtxonalarni o'z vaqtida sifatli tayyorlash hamda quyidagi mahsulotlarni 1966-yilga nisbatan arzonlashtirishga erishish: paxtaning tannarxi-2,5 protsent, sabzavot-23 protsent, poliz mahsulotlari-18 protsent, go'sht-18 protsent, tuxum-27 protsentga arzonlashtirilishi rejalashtirilgan.

Rentabelni 1966-yilga nisbatan kolxozlar bo'yicha 5 protsentga, sovxozlar bo'yicha 6 protsentga oshirish, kolxozchilar uchun 10,000 kvadrat metr, sovxoz ishchilari uchun 8,000 kvadrat metr uy-joy qurish singari sotsialistik majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash uchun har bir rayon quyidagi ko'rsatkichlarga erishishi rejalashtirilgan:

NAVOIY RAYONI BO'YICHA:

44000 tonna paxta yetishtirish va davlatga sotish, 14000 gektar g'o'zaga ikki tomonlama ishlov berish, mashina terimi uchun 15000 gektar paxta maydonini

ajratish, eng qulay muddatlarda 15000 gektar maydonda defolatsiya o'tkazish, bu ishni 7500 gektarda takror o'tkazish hamda mashina bilan kamida 15000 tonna paxta terish, to'kilgan paxtani mexanizmlar vositasi bilan terib olish.

Kamida 140 gektar yangi sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirish va 1967-yil qishloq xo'jalik oborotiga kiritish. Sug'oriladigan har bir gektar yerdan unumli foydalanishga erishish. Vegetatsiya davrigacha va qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda har bir kubometr suvdan tejab-tergab foydalanish.

Bedazorlarni 4380 gektarga, shu jumladan 1967-yilgi bedazorlarni 2190 gektarga yetkazish, ko'p yillik bedazorlarni kamida 75 sentnerdan, 1967-yilda bedazorlardan 20 sentnerdan beda pichanini olish. Urug'chilik bedazorlarni 200 gektarga yetkazish va har bir gektardan 2 sentnerdan beda urug'i olish.

G'alla yetishtirishni 1540 tonnaga yetkazish hamda makkajo'xori va oq jo'xoring har gektaridan 25 sentnerdan don olish. Kolxozda va davlat xo'jaliklarida 1325 tonna go'sht (tirik vaznda), 4731 tonna sut, 3297 ming dona tuxum yetishtirish, xo'jalikning hamma kategoriyalari bo'yicha davlatga 1043 tonna go'sht (tirik vaznda), 4467 tonna sut, 2587 ming dona tuxum, 184 tonna jun, 190 tonna pilla sotish.

Yil oxirigacha kolxoz va sovxozlarda yirik shoxli mollar tuyog'ini 14894 boshgacha, shu jumladan sigirlar tuyog'ini 4460 boshgacha, cho'chqalarni 1200 boshgacha, qo'y va echkilarni 48250 boshgacha, parrandalarni 37300 boshgacha ko'paytirish. Chorva mollari va parrandalar mahsuldorligini oshirish. Har bir sigirdan o'rtacha hisobda 1210 kilogramm sut sog'ish, har bir tovuqdan 100 tadan tuxum olish, go'shtga topshiriladigan har bir yirik shoxli mol vaznini 235 kilogramgacha, cho'chqa vaznini 95 kilogrammga, har bir qo'y vaznini 39 kilogrammga yetkazish.

Har 100 bosh sigirdan va g'unojindan kamida 85 tadan buzoq, har 100 bosh qo'ydan kamida 115 tadan qo'zi va asosiy ona cho'chqadan 28 tadan cho'chqa bolasi erishishga erishish. Chorvachilikning ozuqa bazasini yaxshilash 35000 tonna dag'al hashak tayyorlash, shu jumladan 14660 tonna beda pichan tayyorlash. Makkajo'xori, oq jo'xori maydonlarining har gektaridan 300 sentnerdan silosbop ko'kpoya olish hamda 46500 tonna silos bostirish. Hosildorlikni oshirish hamda gektar boshiga sabzavotdan 150 sentner, kartoshkadan 117 sentner, poliz ekinlaridan 144 sentner, uzumdan 75 sentner va mevadan 42 sentner hosil olish.

Kolxozlarda va davlat xo'jaliklarida sabzavot yetishtirishni 3339 tonnaga, kartoshkani 328 tonnaga, poliz ekinlarini 2147 tonnaga, mevani 498 tonnaga va uzumni 1130 tonnaga ko'paytirish. Hamma kategoriyadagi xo'jaliklar bo'yicha davlatga 1967 tonna sabzavot, 1194 tonna poliz ekinlari mahsuloti, 1448 tonna meva va uzum sotish. Bog'lar va uzumzorlar maydonini kengaytirish.

Quyidagilarning tannarxini 1966-yildagiga nisbatan arzonlashtirishga erishish uchun harakat qilingan. Paxtani-5,0 protsentga, sabzavot-10, poliz mahsulotlari-7, go'sht-3, tuxum-3 protsent. Rentabellikni 1966-yildagiga nisbatan kolxozlar bo'yicha-1,0 protsentga, sovxozlar bo'yicha-10 protsentga oshirish hamda kolxozchilar uchun 120 kvadrat metr, sovxoz ishchilari uchun 1870 kvadrat metr uy-joy qurish majburiyatini bajarish rejalashtirilgan.

KONIMEX RAYONI BO'YICHA:

1967-yilda kamida 132 gektar yangi sug'oriladigan yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jalik oboratiga kiritish. Sug'oriladigan har bir gektar yerdan unumli foydalanishga erishish, har bir kubometr suvdan tejab-tergab foydalanish.

Bedazorlarni 830 gektarga, shu jumladan, bedazorlarni 467 gektarga yetkazish, ko'p yillik bedazordardan 59 sentnerdan beda pichan olish. Urug'lik bedazorlarni 50 gektarga yetkazish va har bir gektardan 2 sentnerdan beda olish, 2435 tonna go'sht (tirik vaznda) yetishtirish va xo'jalikning hamma kategoriyalari bo'yicha davlatga 1990 tonna go'sht (tirik vaznda), 976 tonna jun sotish.

Yil oxirigacha sovxozlarda qo'y va echkilar sonini 313350 boshga ko'paytirish. Go'shtga topshiriladigan har bir qo'yning vaznini 41 kilogrammgacha yetkazish, har 100 bosh ona qo'ydan kamida 120 tadan qo'zi olish, chorvachilikning ozuqa bazasini keskin yaxshilash, 20000 tonna dag'al xashak tayyorlash.

Hosildorlikni oshirish hamda gektar boshiga sabzavotdan 100 sentner, poliz ekinlaridan 81, mevadan 21 va uzumdan 30 sentner hosil olish, hamma kategoriyalardagi xo'jaliklar bo'yicha davlatga 430 tonna sabzavot, 418 tonna poliz ekinlari mahsuloti yetishtirish va davlatga 260 tonna sabzavot sotish.

Qorako'lchilikda naslchilik ishlarini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlarni ko'rish hamda qo'y qirqimida, xashak maydalashda va qo'ylarni sug'orishda barcha mexanizmlardan tog'ri foydalanish.

Quyidagilarni tannarxini 1966-yildagiga nisbatan arzonlashtirishga erishish uchun harakat qilingan: sabzavot 5 protsent, poliz mahsulotlari 5, go'sht 5 protsent. Rentabellikni o'tgan yildagiga nisbatan sovxozlar bo'yicha 10 protsentga bajarish belgilangan. Sovxoz ishchilari uchun 1412 kvadrat metr uy-joy qurish majburiyatini bajarish rejalashtirilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'z zimmasiga yuksak majburiyatlar qabul qilish bilan, uni muddatidan ilgari bajarishni kolxoz va sovxoz ishchi-xodimlari o'zlarining shon-sharaf ishimiz, deb bilishlari va bu sohaga barcha kuch va vositalarni safarbar etib, majburiyatlarni bajarishning muhim sharti-bahorgi ekishni qulay agrotexnika muddatlarida o'tkazish kompaniyasini puxta uyishtirishdan iboratdir deb bilishgan.

Sovet davlati hukmronligi yillarida yuzaga kelgan markazlashgan xalq xo‘jaligi majmuasini yaratish jarayoni, uning nazariyasi va tajribasini o‘rganish, tahlil etish, mazkur voqelikni xolisona baholash, katta ahamiyatga molik masala hisoblanadi. XX asrning o‘rtalaridan boshlab markazlashgan xalq xo‘jaligi majmuasining shakllantirilishi sobiq ittifoqdosh respublikalarni bir-biriga chambarchas bog‘lab, iqtisodiy jihatdan bevosita markazga bo‘ysundirilishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Kommunizm uchun” gazetasi, 1967-yil 26-mart. №38 (648)
2. R.Shamsutdinov, X.Mo‘minov. O‘zbekiston tarixi, “Sharq”. Toshkent-2013
3. Q.Rajabov, H.Abuyev. O‘zbekiston SSRda Sovet davlatining yemirilishi hamda qayta qurish siyosatining tanazzuli (1985-1991) “Fan” Toshkent-2022
4. I.I.Jo‘rayev, “Buxoro oblastida qishloq xo‘jaligi mahsulotlar yetishtirish (1965-1985-yillar misolida)” EDUCATION SCIENCE AND INNOVATIVE IDEAS IN THE WORLD. <https://global-science-review.com/>. 2025. Part: __3__5_ Jun: